



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2026-YIL — MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqqan boshlagan

WWW.XS.UZ • E-mail: Info@xs.uz

2026-yil 3-aprel, № 64 (9235)

Juma

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



BUXORO VILOYATINING MAVJUD IMKONIYATLARINI TO'LIQ ISHGA SOLISH CHORA- TADBIRLARI BELGILANDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2-aprel kuni Buxoro viloyatida amalga oshirilayotgan islohotlar natijadorligi, hududning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish va kelgusidagi ustuvor vazifalar yuzasidan yig'ilish o'tkazdi.

Buxoro viloyati sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmatlar va turizm sohaslarida hech bir hududdan kam bo'lmagan ulkan imkoniyatlarga ega. Viloyatda 2 ta yirik neft-gaz kimyo korxonasi faoliyat yuritmoqda, yana bittasi barpo etilmoqda. Shuningdek, qiymati 5,2 milliard dollar bo'lgan, umumiy quvvati 4,5 gigavattga teng 10 ta yirik quyosh va shamol elektr stansiyasi qurilishi jadal ketmoqda.

2025-yilda hududiy yalpi mahsulot hajmi 7,2 foizga oshib, 86,6 trillion so'mga yetdi, sanoatda 7,1 foiz, qishloq xo'jaligida 4,3 foiz, xizmatlar sohasida 14 foiz o'sish qayd etilgan. Ishsizlik 2024-yildagiga nisbatan 4,7 foizgacha, kambag'allik darajasi 6,0 foizgacha pasaygan.

Yig'ilishda Buxoro viloyatini 2026-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy maqsadli ko'rsatkichlari ko'rib chiqildi. Xususan, yalpi hududiy mahsulot hajmini 102,1 trillion so'mga yetkazib, 9,1 foiz o'sishga erishish, sanoat hajmini 9,1 foizga, qishloq xo'jaligini 5,9 foizga, xizmatlar hajmini esa 20,1 foizga o'stirish vazifalari belgilandi. Ishsizlik va kambag'allik darajasini 2 foizgacha qisqartirish, 381,5 ming nafar aholini daromadli qilish nazarda tutilgan.

Shu maqsadda Buxoro va Kogon shaharlari, shuningdek, Olot, Peshku, Qorako'l, Shofirkon, G'ijduvon, Qorovulbozor tumanlarini ishsizlik va kambag'allikdan xoli hududlarga aylantirish bo'yicha manzilli choralar amalga oshirilishi qayd etildi.

Davlatimiz rahbari Buxoro uch ming yillik tarixga ega ko'hna zamin ekani, bunday boy madaniy meros va tarixiy obidalar jamlangan shaharlar dunyoda kam uchrasini ta'kidledi. Bu salohiyatni iqtisodiy o'sish, yangi ish o'rinlari yaratish, aholi daromadini oshirish va infratuzilmani yaxshilashga xizmat qildirish zarurligi qayd etildi.

Investitsiya va eksport yo'nalishida 2026-yilda 3,3 milliard dollarlik xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirish, 1,5 milliard dollarlik eksportni ta'minlash, umumiy qiymati 9,2 milliard dollarlik investitsiya loyihalarini amalga oshirish vazifasi qo'yildi.

Sanoatni rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Qayd etilganidek, sanoat tarmoqlari kesimida 61 ta yirik loyiha shakllantirilgan bo'lib, ularning umumiy qiymati 2,2 milliard dollarni tashkil qiladi. Natijada 18 mingta yangi ish o'rni yaratish, aholi jon boshiga sanoat hajmini 25,6 million so'mdan 29,6 million so'mga yetkazish mo'ljallangan.

Xususan, Kogon tumanida yiliga 80 mingta elektr va gibrid avtomobil ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish rejalashtirilgan. Loyihaning qiymati 350 million dollarni tashkil etib, 500 ta ish o'rni yaratiladi.

Shuningdek, Buxoro tumanida pirolizni qayta ishlash orqali benzol, toluol, ksilol, pentan, geksan, bitum va kalsiy xlorid ishlab chiqarish bo'yicha 220 million dollarlik loyihani amalga oshirish, Qorovulbozor tumanida 85 million dollarlik loyiha asosida "Al-91" va "Al-92" benzin ishlab chiqarishni kengaytirish, Kogon tumanida qog'oz va karton mahsulotlari ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish ko'zda tutilgan.

Qorovulbozor tumanida yiliga 100 ming tonna mineral o'g'it ishlab chiqarish, Kogon tumanida gipsokarton ishlab chiqarishni kengaytirish rejalarini ham muhokama qilindi.

Shu bilan birga, 61 ta mavjud sanoat zonasidagi bo'sh yer maydonlarida joylashtiriladigan yangi ishlab chiqarish uchun ustuvor yo'nalishlar belgilab olindi. Jumladan, Buxoro shahri va Buxoro tumanida oziq-ovqat va mebelchilik, Vobkentda chirm va yengil sanoat, Kogon va Qorovulbozorda neft-kimyo, Shofirkon va Peshkuda farmatsevtika hamda oziq-ovqat, G'ijduvonda qurilish materiallari yo'nalishlariga ustuvorlik beriladi.

Qishloq xo'jaligida zamonaviy yerdan foydalanish texnologiyalari va irrigatsiya tizimlarini joriy etish hisobiga 100 ming gektar yerni o'zlashtirish va foydalanishga kiritish mumkinligi qayd etildi. Bu viloyat iqtisodiyoti va eksport salohiyatini sezilarli oshirishga xizmat qiladi.

Yig'ilishda viloyatdagi 3 million gektar yaylov yerlaridan samarali foydalanish, chorvachilikni rivojlantirish, ozuqabop ekinlar maydonini kengaytirish bo'yicha yangi yondashuvlar ham muhokama qilindi. Joriy yilda 59,2 ming gektar maydonga to'liq ozuqabop ekinlar ekish rejalashtirilgan. Shuningdek, umumiy qiymati 454 milliard so'm bo'lgan 82 ta chorvachilik loyihasini amalga oshirish, bu maqsadda chetdan 20 ming bosh nasli qoramol, 30 ming bosh qo'y va 200 bosh ot olib kelish ko'zda tutilgan.

Paxtachilik, g'allachilik va suv tejash yo'nalishlarida ham aniq vazifalar belgilandi. Xususan, 2026-yilda paxta hosildorligini 52 sentnerga, g'alla hosildorligini 100 sentnerga oshirish, 96,8 ming gektarda suv ta'minoti va meliorativ holatni yaxshilash, 453,5 million kub metr suvni iqtisod qilish, 742 ta qishloq xo'jaligi texnikasini olib kelish rejalashtirilgan.

Chorvachilikda har bir tumanida 50 bosh nasli qoramolga mo'ljallangan zamonaviy minifermalar tashkil etish taklifi ko'rib chiqildi. Ushbu dastur doirasida 110 ta loyiha amalga oshirilib, 5,5 ming bosh nasli qoramol olib kelinadi, 3 ming 750 ta yangi ish o'rni yaratiladi va 51,5 ming tonna qo'shimcha sut ishlab chiqarish quvvati shakllantiriladi.

Xizmatlar va aholi bandligini ta'minlash yo'nalishida mahallalar ixtisoslashuvi asosida 49 ta loyiha amalga oshirilishi, 33 ta savdo va servis ko'chasi, 2 ta sohil bo'yi hududi, 4 ta turizm mahallasi va 10 ta yo'l bo'yi loyihasi tashkil etilishi belgilandi. Buning uchun jami 12,5 trillion so'm moliyaviy resurs, jumladan, 7,5 trillion so'm kichik va o'rta biznesga yo'naltiriladi.

Turizm sohasi hozirda, asosan, Buxoro shahri hisobiga to'g'ri kelayotgani, viloyatning boshqa tumanlaridagi imkoniyatlar esa hali to'liq ishga solinmagani qayd etildi. Jondor, G'ijduvon, Buxoro, Qorako'l va Vobkent tumanlarida sohil bo'yi va yo'l bo'yi drayver loyihalarini amalga oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish va aholi uchun zamonaviy dam olish muhitini shakllantirish bo'yicha katta imkoniyatlar borligi ko'rsatib o'tildi.

Shu munosabat bilan 2026-yilda 3,5 million xorijiy va 5,5 million mahalliy sayyohni jalb qilish, umumiy turistlar sonini 9 millionga yetkazish vazifasi qo'yildi. Buning uchun 2026-yilda 73 ta yangi joylashtirish vositasi, 15 ta yangi turoperator va turagent ishga tushiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining QARORI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MUSTAQILLIGINING 35 YILLIGINI KENG NISHONLASHGA TAYYORGARLIK KO'RISH VA UNI O'TKAZISH TO'G'RSIDA

Milliy suverenitet va davlat mustaqilligi har qaysi mamlakatning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy taraqqiyotining eng asosiy sharti va garovidir. Bu hal qiluvchi omillar davlatning xalqaro huquq subyekti sifatida dunyo hamjamiyatida munosib o'rin egallashi, xalqning tinch va farovon hayotini ta'minlash, uning barcha manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

Bizning milliy mustaqilligimiz mard va matonati xalqimizning qat'iy irodasi, istiqbol yo'lida kurashgan fidoyi ajdodlarimiz orzu-umidlarining ro'yobi bo'lib, Yangi O'zbekistonni barpo etishga qaratilgan egzu ishlarimizning mustahkam asosi, kelajak avlodlarimiz uchun bezavol yetkazishimiz shart bo'lgan buyuk va muqaddas qadriyatdir.

Mamlakatimizning milliy suvereniteti va davlat mustaqilligi g'oyalarning siyosiy-huquqiy kafolatlarini o'zida mujassam etgan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz hamda "O'zbekiston — 2030" strategiyasi asosidagi taraqqiyot yo'limiz inson qadrimatini yuksaltirish, ko'p millatli jamiyatimizda do'stlik va hamjihatlik muhitini mustahkamlash, milliy urf-odat va an'analarni asrab-avaylash, yurtimizda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash, uning mudofaa qobiliyatini kuchaytirish, mintaqada yaxshi qo'shnichilikni rivojlantirish hamda Vatanimizning

xalqaro obro'-e'tiborini oshirishda mustahkam tayanch bo'lib kelmoqda.

Milliy istiqbolimizning davlatchiligimiz tarixi, hozirgi va kelajak hayotimiz uchun beqiyos ahamiyatini hisobga olib, O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligini Yangi O'zbekistonning bugungi ulkan salohiyati va jahon maydonidagi nufuziga muvofiq yuksak darajada, munosib nishonlash maqsadida qaror qilaman:

- Quyidagilar:
 - "Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!" degan bosh g'oyani o'zida mujassam etgan g'oyaviy-badiiy konsepsiya va dastur 1 va 2-lovalarga muvofiq;
 - O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish bo'yicha respublika komissiyasi tarkibi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
- Respublika komissiyasi (A. Aripov):
 - mustaqillikning 35 yilligini Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri, viloyat va tuman (shahar) markazlarida, barcha mahallalar, qishloq va ovullarda, shuningdek, vazirlik va idoralar tizimida munosib nishonlash maqsadida konsepsiyaning mazmuni va asosiy yo'nalishlariga muvofiq chora-

tadbirlar dasturlarini ishlab chiqish va ijro etishni ta'minlash.

Bunda quyidagi ustuvor yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratish:

- Yangi O'zbekistondagi amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida yuzaga kelgan ulkan imkoniyat va yutuqlarni keng yoritish;
- mamlakatimiz iqtisodiyoti barqaror sur'atlarda jadal rivojlanib borayotganligi natijasida fuqarolarimizning turmush farovonligi ortib borayotganligini ko'rsatib berish;
- yurtimizning tinchligi va chegaralar daxlsizligini ta'minlashga xizmat qiluvchi mudofaa salohiyatini mustahkamlash borasidagi islohotlarni yoritish;
- istiqol tufayli milliy qadriyatlar, davlatchilik, fuqarolik jamiyati institutlari, jumladan, mahalla tizimini rivojlantirish bo'yicha erishilgan yutuq va natijalar ahamiyatini ta'kidlash;
- uronoyilar, xotin-qizlar va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam manfaatlarini ta'minlashga, yoshlarning "Yangi O'zbekistonning bunyodkorlari" sifatida bilim va kasb egallashlari, tadbirkorlik tashabbuslari va iste'dodlarini ro'yobga chiqarishga zarur sharoitlar yaratilganligiga urg'u qaratish;

(Davomi 2-betda).

OSIYO XOTIN-QIZLARI FORUMI DOIMY PLATFORMAGA AYLANTIRILADI

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva boshchiligidagi Osiyo xotin-qizlari II forumini o'tkazish bo'yicha tashkiliy qo'mita yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda tashkiliy qo'mita a'zolari, senatorlar, tegishli vazirlik va idoralar rahbarlari, nodavlat notijorat tashkilotlari vakillari qatnashdi.

Yig'ilish

Ta'kidlash joizki, davlatimiz rahbari tomonidan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2025-yil 23 - 29-sentabr kunlari bo'lib o'tgan 80-sessiyasida Osiyo xotin-qizlari

forumini doimiy platformaga aylantirish taklifi ilgari surilgan edi. Shu maqsadda mazkur anjumanni "BMT-ayollar" tuzilmasi va BMT Aholiushunoslik jam'armasi (YUNFPA) bilan birgalikda joriy yil 13 - 15-may kunlari Buxoro shahrida o'tkazish belgilandi.



Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

AHOLI SALOMATLIGINI ASRASH — USTUVOR MAQSAD

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Mehnat, sog'liqni saqlash va ijtimoiy masalalar qo'mitasi tomonidan "Tibbiy sug'urta tizimida gematologik va onkogematologik bemorlarni dori vositalari bilan ta'minlash holati: muammo va yechimlar" mavzida qo'mita eshituvi o'tkazildi.

Unda deputatlar, Sog'liqni saqlash vazirligi, Respublika ixtisoslashtirilgan gematologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi mas'ullari, Toshkent davlat tibbiyot universiteti professor-o'qituvchilari, tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi tinglovchilari hamda OAV vakillari ishtirok etdi.

Ta'kidlanganidek, Prezidentimiz rahbarligida so'nggi yillarda olib borilayotgan izchil islohotlar natijasida aholiga ko'rsatilayotgan gematologiya xizmati holati yanada yaxshilanib, kasalliklarning oldini olish va erta aniqlash tizimi takomillashdi.



ULUG' VA TABARRUK ZAMIN

Samarqandning dunyo sivilizatsiyasidagi o'rni tobora mustahkamlanmoqda



Tashrifdan tashrifgacha...

Ortda qolgan yillar sarhisobi shuni ko'rsatayptiki, davlatimiz rahbarining joylarga amalga oshirayotgan har bir tashrifi o'sha hududda mislsiz o'zgarishlar, ulkan bunyodkorlik ishlariga katta turki berib, har bir sohada mudrab yotgan ichki salohiyatni uyg'otmoqda. Samarqand viloyatida ham tashrifdan tashrifgacha bo'lgan davrda har jabhada yuksalish kuzatildi. Ushbu tabarruk zaminning tarixiy qiyofasi zamonaviylik bilan uyg'unlashib, yanada ko'rkamlik kasb etib boryapti. Ayniqsa, so'nggi yillarda ro'y berayotgan o'zgarishlar nafaqat hudud infratuzilmasi yoki iqtisodiy ko'rsatkichlarida, balki aholi hayoti, turmush tarzida yorqin aks etib, odamlarda ertangi kunga ishonchini oshirmoqda. Prezidentimiz ta'bir bilan aytganda, "O'zida ko'p ming yillik tarix va qadriyatlarini mujassam etgan, zamonaviy me'morchilik an'analari asosida kundand-kunga chiroq ochib borayotgan bu ulug' zamin dunyo sivilizatsiyasida o'z o'rnini tobora mustahkamlab bormoqda".



Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Samarqand viloyatiga qo'shaloq ayyom — Ramazon hayiti va Navro'z bayramlari arafasida amalga oshirgan navahtdagi tashrifi ham tarixiy voqealarga o'ta boy bo'lgani bilan alohida ahamiyatga ega. Negaki, ikki kunlik safar davomida ko'plab

yirik obyektlar, muborak maskanlar foydalanishga topshirilgan bo'lsa, yana yuzlab investitsiyaviy loyihalar ijrosiga kirishildi. Eng asosiysi, har bir tumanni rivojlantirish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berildi. Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan Samarqand shahrining O'zbekiston

ko'chasi joylashgan sobiq harbiy hospital o'nida Yoshlar kreativ shaharchasi va jamoat bog'i tashkil etilgani bahoriy bayram tufasi bo'ldi. Mazkur shaharcha yigit-qizlar uchun dam olish joyiga emas, axborot texnologiyalari va sport bilan muntazam shug'ullanish, startap loyihalarini amalga

oshirish uchun qulay maskan hisoblanadi. Misol uchun, viloyat shaxmat federatsiyasi ham yangi bog'da joylashgan bo'lib, bu yerda yosh avlodni aql gimnastikasiga kengroq jalb etish, o'quv-mashg'ulot yig'inlari, musobaqalar o'tkazish uchun barcha shart-sharoit muhayyo qilingan. Bundan tashqari,

bag'da bolalar attraksionlari, fitnes zallari, stol tennis zali, tennis kortlari, vorkaut va minigolf maydonlari, urunoyilar maskani, o'ndan ortiq ayvonchalar barpo etilgan — ularning barchasi uni shaharning eng so'lim va gavjum go'shalaridan biriga aylantirdi, desak, ayni haqiqat.



"YASHIL MAKON" — KELAJAK OLDIDAGI MAS'ULIYAT IFODASI

Bugungi kunda ekologik barqarorlik, iqlim o'zgarishi va aholi salomatligini asrash masalalari dunyo miqyosida eng dolzarb mavzulardan biriga aylangan. Shu nuqtayi nazardan, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan "Yashil makon" umummilliy loyihasi nafaqat tabiatni asrash, balki kelajak avlod uchun sog'lom va munosib hayot muhitini yaratishga qaratilgan ulkan harakat sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

So'nggi besh yil davomida "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida har yili 200 mln. tup ko'chat ekilgani, minglab gektar maydonlarda yashil bog'lar, jamoat parklari va yangi o'rmonzorlar barpo etilgani bu boradagi ishlar tizimi hamda keng ko'lamda olib borilayotgan dalolat beradi. Ayniqsa, Orolning qurigan tubida 2 mln. gektar maydonga himoya o'rmonzorlari yaratilgani, cho'l va tog' hududlarida yangi o'rmonlar tashkil etilgani ekologik xavfsizlikni ta'minlash yo'lida nihoyatda muhim qadamdir.



Munosabat

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Milliy dendrologiya bog'ini barpo qilish tashabbusi doirasida ko'chat ekish tadbirida

qatnashib, ushbu egzu tashabbusning mazmun-mohiyatiga yana bir bor alohida to'xtalgani bejiz emas. Zero, xalqimiz azaldan daraxt ekishni savob amallardan, obodlik va farovonlik ramzi deb bilgan.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
QARORIO'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MUSTAQILLIGINING
35 YILLIGINI KENG NISHONLASHGA TAYYORGARLIK KO'RISH
VA UNI O'TKAZISH TO'G'RISIDA

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

(vi) millatlararo do'stlik va dinlararo bag'rikenglik muhitini saqlash va kuchaytirishni barcha fuqarolarning muqaddas burchi sifatida targ'ib qilish;

(vii) bayram tadbirlariga barcha yoshlar, ijtimoiy va etnik guruhlarda vatandoshlarning faol jalb etilishini ta'minlash;

b) ilm-fan, ta'lim, madaniyat, adabiyot va san'at namoyandalari, sportchilar, jamoatchilik vakillaridan iborat badiiy-ijodiy guruhlarga tuzish hamda ular ishtirokida aprel – sentabr oylari davomida respublika bo'ylab keng ko'lamdagi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar va ijtimoiy loyihalarni o'z ichiga olgan "Mustaqillik to'yi" (festivali) tadbirlarini o'tkazish;

v) Toshkent shahrida o'tkaziladigan asosiy bayram tadbiriga tayyorgarlik ko'rishda taniqli ssenarist va rejissyorlar, shoir va yozuvchilar, xonanda va bastakorlar, baletmeysterlar, sahna rassomlari, iste'dodli yosh ijrochilarni jalb etish;

g) mustaqillikning 35 yilligi arafasida mamlakatimizning yirik sanoat, madaniyat, ta'lim va sport muassasalarining tantanali ochilish marosimlarini yuqori saviyada tashkil etish choralarini ko'rsin.

3. Belgiansinki, Madaniyat vazirligi Toshkent shahrida bo'lib o'tadigan asosiy bayram tadbiriga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bo'yicha mas'ul tashkilot hisoblanadi.

4. Badiiy akademiya, Madaniyat vazirligi, Yozuvchilar uyushmasi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi 2026-yil 1-iyungacha qadar milliy mustaqillik va suverenitet g'oyalari, Yangi O'zbekiston bunyodkorlari qiyofasini o'zida aks ettirgan "Vatan fidoyilari" ramziy monumening eskiz loyihasini ishlab chiqsin va Vazirlar Mahkamasiga kiritсин.

Ushbu monument Qoraqalpog'iston Respublikasi,

viloyatlar, tuman va shaharlarda 2026 – 2030-yillarda barpo etilayotgan umummilliy birdamlik bog'larining markaziy qismida o'rnatilishi hisobga olinсин.

5. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Yangi O'zbekiston taraqqiyoti tadqiqotlari instituti, "Yuksalish" umummilliy harakati, "Taraqqiyot strategiyasi" markazi bilan birgalikda 2026-yil 1-avgustga qadar har bir sohada amalga oshirilayotgan islohotlar, ularning natijalari va erishilgan yutuqlarga bag'ishlangan "Mustaqillik zafarnomasi" maxsus kitob-albomini tayyorlasin.

6. Yoshlar ishlari agentligi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi 2026-yil aprel oyidan ijtimoiy tarmoqlarda #Mustaqillik35, #Uz35 xeshteglarida o'z aksiyalarini (flashmoblar, podkastlar, viktorina va boshqalar) boshlasin.

7. Kinematografiya agentligi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O'zbekiston milliy media birlashmasi 2026-yil aprel oyidan boshlab "35 yillik istiqlol yilnomasi" ruknida mustaqilligimizning tarixiy bosqichlari, erishilgan yutuqlar va bunyodkorlik ishlarini yorituvchi turkum hujjatli filmlar, ko'rsatuvlar tayyorlash va telekanallarda namoyish etilishini ta'minlasin.

8. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati, Adliya vazirligi hamda Qonunchilik va huquqiy siyosat institutining 2026-yil avgust oyida Toshkent shahrida "Mustaqil O'zbekiston – 35 yillik taraqqiyot yo'li: islohotlar, natijalar va istiqbol" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyani o'tkazish to'g'risidagi taklifga rozilik berilsin.

9. Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo'yicha qo'mita "Vatandoshlar" jamoat fondi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Tashqi ishlar vazirligi, Yozuvchilar uyushmasi bilan birgalikda 2026-yil avgust-sentabr oylarida xorijdagi vatandoshlar va o'zbek diasporasi vakillari ishtirokida "Mustaqil O'zbekiston

– g'ururim, iftixorim" shiori ostida madaniy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etsin.

10. Markaziy bank 2026-yil 1-sentabrga qadar "Mustaqillikning 35 yilligi" esdalik oltin tangasini zarb etish choralarini ko'rsin.

11. O'zbekiston mahallalari uyushmasi, Transport vazirligi 2026-yil 1-mayga qadar tegishli yangi tashkil etilgan mahallalardan hamda temir yo'l stansiyalaridan biriga "Mustaqillikning 35 yilligi" nomini berish bo'yicha takliflarni kiritсин.

12. Belgilab qo'yilsinki, o'tkaziladigan bayram tadbirlari:

a) Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda – tegishli mahalliy byudjetlarning qo'shimcha manbalari hamda homiylik mablag'lari hisobidan;

b) Toshkent shahrida – Respublika komissiyasi tomonidan tasdiqlangan xarajatlar smetasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasining respublika byudjeti va Toshkent shahar mahalliy byudjeti mablag'lari hisobidan teng ulushlarda moliyalashtiriladi.

13. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi, "Dunyo" axborot agentligiga yurtimiz mustaqilligi, Yangi O'zbekistonning rivojlanish yo'li va xalqimizning birdamligi haqida turkum materiallar tayyorlash va tarqatish tavsiya etilsin.

14. Respublika komissiyasi mazkur qaror ijrosini nazorat qilish, har oyda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga axborot kiritib borish, zarur holda, qo'shimcha chora-tadbirlar ko'rishni ta'minlasin.

15. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N.Aripov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti

Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2026-yil 1-aprel

BUXORO VILOYATINING MAVJUD
IMKONIYATLARINI
TO'LIQ ISHGA SOLISH
CHORA-TADBIRLARI BELGILANDI

Buxoro shahrida barpo etilayotgan yangi turizm markazida 5 ta xalqaro brendli mehmonxona tashkil etish, Shofirkon tumanida "Xo'ja Orif", Buxoro tumanida "Chor Bakr" va "Yorjon" turizm qishloqlarini rivojlantirish, Buxoro shahrida "Moxi Xosa" turizm mahallasini shakllantirish nazarda tutilgan. Buxoro tarixiy markazida YUNESKO talablariga mos alohida ma'muriy boshqaruv tizimini joriy qilish muhimligi ta'kidlandi.

Shuningdek, Kogon shahrida 6 ta tarixiy obyekt negizida turizm shaharchasini tashkil etish taklifi ko'rib chiqildi.

Kadrlar tayyorlash masalasiga ham alohida e'tibor qaratildi. Avstriyaning Krems universiteti bilan qo'shma fakultet ochish, Buxoro turizm va madaniy meros texnikumini mazkur oliygoh boshqaruviga berish rejalashtirilgan. Bunda to'liq dual ta'lim asosida mutaxassislar tayyorlash va boshqaruv kadrlarini qayta tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish zarurligi ta'kidlandi. Ushbu universitet Buxoro shahrida tashkil etilayotgan tunu kun ko'chalarni boshqarish bo'yicha yangi modelni ishlab chiqishga ham ko'maklashadi.

Yig'ilishda aholi sonining o'sishiga mos ravishda uy-joy va infratuzilmani rivojlantirish masalalari ham ko'rib chiqildi.

Xususan, Buxoro tumanidagi Rabotak mahallasi hududida 63 gektar maydonda 10 mingdan ortiq xonadonli zamonaviy uy-joylar kompleksi qurish, Buxoro shahrida yangi ma'muriy markaz tashkil qilish, "Yangi O'zbekiston" massivi hamda "Yangi O'zbekiston" bog'ini barpo etish, Buxoro

davlat universitetining yangi kampusini qurish kabi yirik qurilish va urbanizatsiya loyihalari muhokama qilindi.

Yo'l va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini yaxshilash bo'yicha ham qator vazifalar belgilandi. Viloyatda uzunligi 33,1 kilometr bo'lgan 7 ta aylanma yo'l barpo etish, G'uzor – Buxoro – Nukus – Beyneu yo'lining 78 kilometr va Samarqand – Buxoro – Turkmanboshi yo'lining 71 kilometr qismini rekonstruksiya qilish, "A-380" yo'li bo'yida 30,8 gektar yer maydonini auksionga chiqarib, 403 ta servis loyihasini joylashtirish rejalashtirilgan.

Og'ir toifadagi 3 ta tuman va 36 ta mahallada, shuningdek, "Yangi O'zbekiston qiyofasidagi" 2 ta tuman va 35 ta mahallada yangi yondashuvlar asosida yo'l, elektr, suv hamda sug'orish tarmoqlarini yaxshilash ishlari amalga oshirilishi, bu maqsadlarga jami 593 milliard so'm mablag' yo'naltirilishi ma'lum qilindi.

Ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish uchun 2026-yilda jami 4 trillion 484 milliard so'm mablag' yo'naltirilishi, buning hisobiga maktab, bog'cha, tibbiyot muassasalari hamda kommunal va transport infratuzilmasi bo'yicha yuzlab loyihalar amalga oshirilishi qayd etildi.

Prezidentimiz Buxoro viloyatining mavjud imkoniyatlarini to'liq ishga solish, har bir tashabbusni aniq loyihaga aylantirish, investitsiya, ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi, turizm va infratuzilma sohalarida natijadorlikni ta'minlash bo'yicha mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berdi.

O'ZA.

OSIYO XOTIN-QIZLARI FORUMI
DOIMIY PLATFORMAGA
AYLANTIRILADI

Forum doirasida mintaqa xotin-qizlarining siyosat, iqtisodiyot, sog'liqni saqlash va ta'lim, ijtimoiy himoya, iqlim, ekologiya va boshqaruv sohalaridagi huquq hamda imkoniyatlarini kengaytirish masalalari muhokama etiladi. Bu boradagi global va mintaqaviy hamkorlik yanada mustahkamlanadi va o'zaro tajriba almashiladi.

Mazkur anjuman orqali davlatimiz rahbari boshchiligidagi O'zbekistonda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan islohotlar, ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlar, bandlik, tadbirkorlik, ta'lim va ijtimoiy himoya sohalarida yaratilgan shart-sharoitlar, obod mahallalar va farovon oilalar hayoti, turizm salohiyati hamda ilg'or milliy tajriba xorijiy ishtirokchilarga yetkaziladi.


Shuningdek, Xotin-qizlar kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi BMT konvensiyasi, Xavfsizlik Kengashining 1325-rezolyutsiyasi, Pekin deklaratsiyasi va Harakatlar platformasi qoidalarini hamda Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi.

Yig'ilish davomida tadbirni o'tkazish bilan bog'liq tashkiliy jihatlar, forum kun tartibi, uning mazmuni hamda xorijiy mamlakatlar delegatsiyalari bilan ikki tomonlama uchrashuvlarni tashkil etish masalalari muhokama qilindi.

AHOLI SALOMATLIGINI ASRASH –
USTUVOR MAQSAD

Gematologiya va transfuziologiya xizmatlarining moddiy-texnika bazasi mustahkamlandi. Aholi uchun qulay shart-sharoitlar yaratilib, zarur dori-darmonlar bilan ta'minlanmoqda.

Shu bilan birga, gematologik, onkogematologik va boshqa davolash



Shuningdek, gematologik va onkogematologik bemorlarni dori vositalari bilan uzluksiz ta'minlash, milliy klinik protokol va standartlarga muvofiq amaliyotni to'liq joriy etish, davlat tibbiy sug'urtasi tizimi doirasida kasallik asoratlarining oldini olish maqsadida ambulator va uy sharoitida davolanishni moliyalashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Yig'ilishda ushbu sohada amalga oshirilayotgan ishlar e'tirof etilib, mavjud muammolar chuqur tahlil qilindi. Aholi orasida gematologik va

onkogematologik kasalliklarni erda bosqichda aniqlash holatlarini ulushini oshirish, gematologik xastaliklarga chalinganlarni ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam bilan qamrab olish lozimligi qayd etildi.

Shuningdek, gematologik va onkogematologik bemorlarni dori vositalari bilan uzluksiz ta'minlash, milliy klinik protokol va standartlarga muvofiq amaliyotni to'liq joriy etish, davlat tibbiy sug'urtasi tizimi doirasida kasallik asoratlarining oldini olish maqsadida ambulator va uy sharoitida davolanishni moliyalashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Yig'ilishda ushbu sohada amalga oshirilayotgan ishlar e'tirof etilib, mavjud muammolar chuqur tahlil qilindi. Aholi orasida gematologik va

Sevara UBAYDULLAYEVA, qo'mita a'zosi:
– Gematologik va onkogematologik bemorlarni dori vositalari bilan ta'minlash masalasi tibbiy sug'urta tizimining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mavjud muammolarni hal etish uchun esa tizimli yondashuv va kompleks

islohotlar talab etiladi. Davlat va xususiy sektor hamkorligida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar ushbu sohada ijobiy natijalarga olib kelishi mumkin. Tibbiy sug'urta tizimini takomillashtirish orqali gematologik va onkogematologik bemorlarning hayot sifati va davolanish samaradorligi sezilarli darajada oshadi. Muhokamada biz, deputatlar aynan ushbu jihatlar e'tibor qaratgan holda, o'z tavsiyalarimizni berdik.

Eshituv davomida deputatlar tomonidan fuqarolar murojaatlari asosida o'tkazilgan o'rganishlarda aniqlangan masalalardan kelib chiqib, maxsus dori vositalarini markazlashtirilgan tarzda o'z vaqtda xarid qilish, bemorlarni ambulator va uy sharoitida davolanishi davlat tomonidan kafolatlangan tibbiy xizmatlar paketi doirasida amalga oshirish, profilaktik davolash mexanizmlarini kuchaytirish bo'yicha zarur takliflar berildi.

Yakunda kun tartibidagi masalalar yuzasidan qo'mitaning tegishli qarori qabul qilindi.

XAVFSIZ MUHITNI SHAKLLANTIRISH
MASALALARIGA E'TIBOR QARATILDI

Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi raisi Qutbiddin Burhonov hamda Ichki ishlar vaziri o'rinbosari Bahodir Mirzarahimov boshchiligidagi ishchi guruh tomonidan Toshkent shahrining Mirobod tumanida xavfsiz muhitni shakllantirish, jinoyat va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish borasida amalga oshirilayotgan ishlar o'rganildi.

O'rganish

Ishchi guruh a'zolari mahallalarda jamoat tartibini ta'minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasini kuchaytirish hamda aholi xavfsizligini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarni tahlil qildi. Bunda faqat mavjud holatni baholash bilan cheklanilmasdan, amaliy natija beruvchi yangi yondashuvlar va mexanizmlar joriy etish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Jumladan, Mirobod tumani hokimligidagi respublika idoralararo muvofiqlashtiruvchi shtab faoliyati o'rganilib, uning samaradorligini yanada oshirish bo'yicha aniq takliflar ishlab chiqildi.

Tuman hududida o'rnatilgan videokuzatuv kameralarining imkoniyatlaridan to'liq foydalanish, ularni yagona integratsiyalashgan tizimga ulash orqali jinoyatlarni tezkor aniqlash va oldini olish imkoniyatlarini kengaytirish yuzasidan ko'rsatmalar berildi.

Shuningdek, ishchi guruh "Obod mahalla" dasturi doirasida qurilish-ta'mirlash va obodonlashtirish sa'y-harakatlari olib borilayotgan Ziyonur mahallasida bo'lib, bu yerda xavfsiz muhit yaratish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishdi.

YOSHLAR MUAMMOLARINI HAL
ETISHGA ILMIY YONDASHUV

Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi hamda Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti o'rtasida o'zaro hamkorlik memorandumini imzolandi.

Hamkorlik

Tomonlar yoshlar siyosati sohasida qonunchilikni takomillashtirish, yigit-qizlarning huquq va manfaatlarini himoyalash, ularning ta'lim olishi, bandligi hamda jamiyat hayotida faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan

takliflar ishlab chiqishda hamkorlik qilishga kelishib oldi.

Shu bilan birga, yoshlar muammolarini tizimli ravishda o'rganish, ularning ehtiyoj va qiziqishlarini tahlil qilish hamda zamonaviy tahdidlarga samarali javob beruvchi yechimlarni ishlab chiqish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilishi ta'kidlandi.

Uchrashuv

BO'LAJAK
HUQUQSHUNOSLAR
SENATDA

Kuni kecha Toshkent davlat yuridik universiteti talabalari Oliy Majlis Senatida bo'lib, parlament yuqori palatasi faoliyati bilan yaqindan tanishdi.



Tadbir yoshlarning siyosiy-huquqiy savodxonligini oshirish, davlat boshqaruvi tizimi hamda parlament faoliyati haqida amaliy bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash maqsadida tashkil etildi.

Uchrashuv davomida talabalar senatorlar, xususan, Sud-huquq masalalari va korruptsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi a'zolari, Senat devoni xodimlari hamda Yoshlar parlament vakillari bilan muloqot qildi.

Tadbirda Senatning Sud-huquq masalalari va korruptsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi raisi Abdulhakim Eshmuratov va doimiy asosda ishlovchi senator Zurnad Bekatova mamlakatimizda korruptsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lami ishlar, sud-huquq islohotlari, Senat faoliyati, uning qonunchilik jarayonidagi o'rni hamda parlament tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, shuningdek, yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar haqida batafsil ma'lumot berdi.

Bo'lajak huquqshunoslarga kasbiy faoliyat yuzasidan zarur tavsiya hamda maslahatlar berildi.

Talabalar o'zlarini qiziqitgan savollar bilan murojaat qilib, davlat boshqaruvi va parlament faoliyatiga oid masalalar yuzasidan fikr-mulohazalarini bildirdi.

"Xalq so'zi".

Aks sado

“YASHIL MAKON” —
KELAJAK OLDIDAGI
MAS’ULIYAT IFODASI

E'tiborlisi, bu tashabbuslar endilikda faqat ko'chat ekish bilan cheklanib qolayotgani yo'q. Zamonaviy ko'chatxonalar, suvsizlikka chidamli galofit bog'lar yaratilayotgani, hududlarning iqlim va tuproq xususiyatidan kelib chiqib ilmiy yondashuv asosida ish olib borilayotgani “Yashil makon” umummilliy loyihasi mutlaqo yangi bosqichga ko'tarilganini ko'rsatadi.



Qisqa davr ichida respublikada yashillik darajasining 8 foizdan 14,2 foizga oshgani ham bu sa'y-harakatlarining amaliy samarasini yaqqol namoyon etmoqda. Eng muhimi, ushbu xayriyada nuroniyalar, yoshlar, tadbirkorlar, mehnat jamoalari va keng jamoatchilik faollik ko'rsatayotgani jamiyatimizda ekologik madaniyat tobora mustahkamlanib borayotganidan dalolatdir. 2030-yilga qadar esa mamlakatdagi umumiy yashillik darajasini 30 foizga, jon boshiga to'g'ri keladigan yashil hududlar hajmini esa 10 kvadrat metrga yetkazish bo'yicha ulkan maqsadlar belgilanganini ayni yo'nalishdagi islohotlarning izchil davom etishini anglatadi.

Bugun ekologiya masalasi bu shunchaki tabiatni asrash emas, balki inson hayoti sifati, hududlar jozibadorligi va iqtisodiy barqarorlik bilan bevosita bogliq masaladir. Shu bois “Yashil makon” umummilliy loyihasi har bir yurtdoshimiz uchun umumxalq harakatiga aylanishi zarur.

Gulnora MA'RUFOVA,
Oliy Majlis Senatining Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi a'zosi.

BIRNI KESSANG, MINGNI EK!

Mamlakat taraqqiyotini atrof-muhit muhofazasi, inson salomatligi va hududlar obodligi bilan uyg'un holda tasavvur qilish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xalqimizda “Birni kessang, mingni ek” degan naql ham bejiz aytilmagan. Shu ma'noda, yurtimizda amalga oshirilayotgan “Yashil makon” umummilliy loyihasi keng ko'lami obodonlashtirish ishlarini yangi bosqichga olib chiqqan, tabiatga ehtiyotkor munosabatni hayot tarziga aylantirishga qaratilgan muhim tashabbus sifatida namoyon bo'lmoqda.



Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, xalqimiz azal-azaldan ko'chat ekishni ezgulik, obodlik va baraka timsoli deb bilgan. Navro'z ayyomida, oilada farand tug'ilganda, mahalla va ko'chalarni obod etishda daraxt ekish an'anasi xalqimizning tabiatga mehr-muhabbati, kelajak avlod oldidagi va bunyodkorlik ruhini yaqqol namoyon qiladi. “Yaxshidan bog' qoladi”, “Bir ko'chat — ming baraka” kabi hikmatli naql va qadriyatlar bugun yanada chuqur ma'no kasb etmoqda.

E'tiborlisi, “Yashil makon” umummilliy loyihasi faqat ommaviy ko'chat ekish tashabbusi emas,

balki chuqur ilmiy, tashkiliy va institutsional asosga ega yirik ekologik siyosatga aylanmoqda. Har bir hududda “yashil” texnikumlar tashkil etilishi, dual ta'lim asosida yiliga 10 ming nafar mutaxassis tayyorlanishi, botanika va dendrologiya bog'larining amaliyot hamda tadqiqot bazasiga aylanishi bu yo'nalishda uzoq muddatli va puxta o'ylangan yondashuv shakllanayotganidan dalolat beradi.

Bugungi kunda mahalla raislari, nuroniyalar, xotin-qizlar faollari, yoshlar va keng jamoatchilikni ana shunday ezuq ishlar atrofida birlashtirish g'oyat muhim. Chunki ko'chat ekish tashabbusi emas,

obodonlashtirish emas. Bu toza havo, sog'lom muhit, aholi salomatligi, hududlar jozibadorligi va ertangi kun farovonligi, demakdir.

Milliy dendrologiya bog'ining barpo etilishi, “Yashil” universitet hududida “ilm — loyiha — amaliyot” zanjiri asosida zamonaviy laboratoriyalar va markazlar ochilayotgani ham ekologik siyosatimizning ilm-fan bilan chambarchas bog'lanayotganini ko'rsatadi. Bu esa “yashil” taraqqiyot yo'lida nafaqat bugungi ehtiyojlarni, balki kelajakdagi ekologik tahdidlarni ham oldindan hisobga olgan holda harakat qilinayotganidan dalolat.

“Yashil makon” umummilliy loyihasi nafaqat ekologik tashabbus, balki yurt taqdiri, millat salomatligi va kelajak avlod oldidagi yuksak mas'uliyat ifodasidir, desak, ayni haqiqat. Zotan, ko'chat ekkan, bog' yaratganlarning nomi el-yurt tilida, dilida abadiy qoladi.

Nuratilla PARDAYEV,
Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya qo'mitasi a'zosi.

BO'QIYLIKKA DAXLDOR UMUMMILLIY HARAKAT

Prezidentimiz keng jamoatchilik vakillari bilan birgalikda “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasidagi ko'chat ekish tadbirida ishtirok etib, Milliy dendrologiya bog'ini barpo qilishga start bergani yurtimiz hayotida muhim voqeelik.

Ta'kidlash joziki, bundan besh yil avval ilgari surilgan ushbu loyiha bugun keng quloq yoyib, yurtimizda ekologik vaziyatni yanada yaxshilash, iqlim o'zgarishlariga milliy yechim sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'tgan davrda 2 ming gektardan ziyod maydonda 942 ta yashil bog' va yashil jamoat parklari, 47 ta massivda “Yangi O'zbekiston bog'larini” barpo etilgani fikrimiz tasdiq'idir. Tog', cho'l va adirlarda minglab gektar o'rmon tashkil qilingani, Orolning qurigan tubida ikki million gektar maydonda yashil qoplamali himoya o'rmonzorlari yaratilgani natijasida mamlakatimizda yashillik darajasi 8 foizdan 14,2 foizga oshdi.

Joriy yil 25-mart kuni davlatimiz rahbari tomonidan imzolangan “Yashil makon” umummilliy loyihasi samaradorligini yanada



kengaytirish bo'yicha katta marra olindi. Tadbirida davlatimiz rahbari tomonidan hududlarda yashil bog'lar yaratish bo'yicha aholi va deputatlar ishtirokini yanada kengaytirishni, ya'ni “Mening bog'im” dasturi doirasidagi loyihani moliyalashtirish uchun Oliy Majlis Qonunchilik palatasining har bir deputatiga ham o'z okrugida yashil hudud, yashil bog' yaratishi uchun 412 mln. so'mdan

mablag' ajratilishi bo'yicha bildirilgan taklif biz, parlament vakillarini quvontirdi.

Daraxt hamda butalarning, yashillikning inson hayotidagi ahamiyati qanchalik muhimligi barchamizga yaxshi ayon. Ko'kka bo'y cho'zib turgan salobatli dov-daraxtlar, ko'kalimzor joylar ko'zni yashnatishi bilan birga havo musaffoligini ham ta'minlaydi. Yashayotgan makonni yashillikka burkash, bog'u bo'stonlar barpo etish inson hayotini bo'qiylikka daxldor qiladi.

Zero, yashil olam musaffo tabiatning asosiy ilidizidir. Tabiiy drenaj hisoblangan ko'p yillik daraxtlarning ekilishi hududdagi mikroiklimni yumshatadi. Ko'kalimzorlashtirilgan hududlarni, ayniqsa, shahar va avtomobil yo'llari chetida yashil hududlarni kengaytirish atmosferaga tashlanayotgan ifloslantiruvchi moddalar miqdorini kamaytiradi. Borliqning yashillikka burkanishi aholi salomatligini saqlashning asosiy omillaridan biridir.

Bugungi global iqlim o'zgarishlari sharoitida yashillikni ko'paytirish, daraxt va buta ko'chatlarini ekish orqaligina musaffo tabiatni kelajak avlodga yetkazishimiz mumkin. “Zero, yaxshi niyatda ekilgan har bir ko'chat bu — hayot, bu — toza havo, bu — sog'lom muhit, bu — kelajak demak!” dedi davlatimiz rahbari.

Shunday ekan, milliy qadriyatlarimiz va analarimizga sodiqlik timsoli sifatida mamlakatimiz hududini bog'u bo'stonga aylantirishga yo'naltirilgan “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida daraxt ekish tadbirlarida faol ishtirok etish orqali Yangi O'zbekistonning “yashil” taraqqiyoti uchun hissa qo'shish barchamizning muqaddas burchimiz.

Xayrullo G'AFFOROV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qo'mitasi raisi.

JISMONIY TARBIYA VA
SPORT SOHASI RIVOJIDA
MUHIM HUQUQIY ASOS

Aholi salomatligini mustahkamlash, jamiyatda sog'lom turmush tarzini shakllantirish har doim dolzarb masala bo'lib kelgan va bugungi globallashuv davrida buning ahamiyati yanada ortmoqda.

Deputat sharhi



Sir emaski, inson sog'lig'i ko'plab omillarga bog'liq, ammo ular ichida eng muhimi — sport bilan muntazam shug'ullanish. Shu ma'noda, keyingi

yillarda mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, sport inshootlarini zamonaviy jihozlar bilan ta'minlashga ustuvorlik berilyapti. Mahalladan boshlab aholi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida ommaviy sport musobaqalarini tizimli tashkil etish orqali sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga qaratilgan keng ko'lami islohotlar amalga oshirilayotir.

Bugungi islohotlar ham, natijalar ham avvalgilarga o'xshamaydi. Ya'ni sport yo'nalishida erishilgan yutuqlarimiz, hayotga tatbiq etayotgan istiqbolli loyihalarimiz yildan-yilga ko'payib bormoqda.

Yutuqlarimiz haqida so'z yuritganda, azmu shijoatli sportchilarimizning nufuzli xalqaro musobaqalarda erishgan g'alabalarini ta'kidlash o'rinni, albatta. Birgina 2025-yil O'zbekiston futbol uchun chinakam tarixiy yil bo'ldi. Milliy terma jamoamiz ilk bor jahon chempionatiga yo'llanmani qo'lga kiritdi. Mohir shaxmatchilarimiz jahon kubogi musobaqalarida munosib qatnashib yuqori natijalarni ko'rsatishayotir. O'tgan yilgi Yoshlar Paraosiy o'yinlarida jasorat hamda matonat sohibi bo'lgan sportchilarimiz 125 ta oltin, 77 ta kumush va 52 ta bronza medalini qo'lga kiritib, ishtirokchi davlatlar orasida eng yuqori natijani qayd etdi.

Yutuqlar haqida yana ko'plab misollar keltirish mumkin.

Aytmoqchimizki, Yangi O'zbekistonda sport siyosat darajasiga chiqdi. Mahallalarda, ko'p qavatli uylar atrofida “salomatlik yo'laklari”, sport maydonchalari qurilib, ta'lim muassasalarida sport to'garaklari ochilgani natijasida xalqimizning o'z salomatligiga qarashlari

tubdan o'zgardi. Mazkur yo'nalishdagi tub islohotlar yosh avlod vakillarini sportga keng jalb qilish orqali ularni ham jismonan, ham ma'nan tarbiyalash, sog'lom turmush tarzini shakllantirishga yo'naltirilgani bilan ham e'tiborga molik, albatta.

Yaqinda davlatimiz rahbari tomonidan imzolangan — “Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida”gi Qonun ham sohadagi ishlarning mantiqiy davomi bo'ldi, desak, ayni haqiqat.

Ahamiyatli tomoni shundaki, ushbu hujjatni tayyorlash jarayonida ilg'or xorijiy tajribalar o'rganildi. Xalqaro sport tashkilotlari vakillari bilan maslahatlashuvlar o'tkazildi. Vazirlik va idoralar, jismoniy tarbiya hamda sport sohasida faoliyat olib boruvchi nodavlat notijorat tashkilotlar, sohada uzoq yillar faoliyat ko'rsatgan mutaxassislarning taklif va xulosalari olindi.

Qonun bilan ommaviy sportga keng jalb qilish orqali aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, fuqarolarning jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash, “Besh tashabbus olimpiadasini”, “Besh tashabbus paralimpiadasini” va boshqa ommaviy sport musobaqalari, sport federatsiyalari, trener, hakam, sport agenti hamda bevosita sohaga daxldor qator subyektlarning huquq va majburiyatlari aniq belgilab qo'yildi. Shuningdek, sportda manfaatlar to'qnashuvi, musobaqalar natijalariga qonunga xilof ravishda ta'sir ko'rsatishning oldini olish, dopingga qarshi kurashish, maktablarda hamda oliy ta'lim tashkilotlarida sport klublarini tashkil etish masalalari ham tartibga solindi.

Bu hali hammasi emas. Milliy olimpiya va paralimpiya qo'mitalarining huquqiy maqomi va vakolatlari, surdlimpiya, maxsus olimpiya, ko'zi ojizlar sporti harakatlariga oid hamda boshqa qator muhim masalalar qonun darajasida mustahkamlandi. Hujjat bilan belgilangan barcha normalar sohani yanada rivojlantirish, shuningdek, jismoniy tarbiya va sportga oid munosabatlarni tizimli tashkil etish imkonini beradi.

To'ychi YO'QUBOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

ULUG' VA TABARRUK ZAMIN

Ishbilarmonlik markazi
Samarqand viloyati o'zining yuksak nufuzi hamda salohiyatiga qaramay, uzoq yillar mamlakatimizning rivojlangan hududlari qatoriga kira olindi. Nega? Negaki, vaziyatni o'nglash bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, deyarli barcha sohada yig'ilib qolgan tizimli muammolarni hal etish, katta maqsad va rejalarini to'la-to'kis ro'yobga chiqarishda to'siq va g'ovlar bor edi. Qolaversa, aholining katta qismi dala ishlarida band bo'lib, sanoat yetarli darajada rivojlanmagan, hududning respublika ishlab chiqarishdagi ulushi taxminan 5 foiz atrofida edi.

Infratuzilmada ham muammolar qalashib ketgandi. Elektr va gaz ta'minotidagi uzilishlar odiy hol sifatida qabul qilinib, eskirgan tarmoqlar, zaif kommunal tizimi, sifati ichimlik suvi tanqisligi — bular kundalik hayot sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmasdan qolmas edi, albatta.

2017-yildan so'ng, aniqrog'i, davlatimiz rahbari tomonidan uzoqni ko'zlab yuritila boshlangan oqilona siyosat tufayli hudud taraqqiyotida mutlaqo yangi bosqichga qadam tashlandi. Jalb etilayotgan investitsiyalar hajmi, texnologiya va innovatsiyalar ko'lami karrasiga ortib, sanoat rivojlandi, ta'lim va tibbiyot sohalar takomillashdi. Pirovardida Samarqand qisqa vaqt ichida chin ma'noda siyosiy, iqtisodiy, san'at va madaniyat, ishlabarmonlik markaziga aylandi. Birgina 2025-yilning o'zida 40 dan ortiq xalqaro tadbirlar o'tkazilgani fikrimiz tasdiq'idir.

Keyingi yillarda turizm sohasida qo'lga kiritilayotgan yutuqlar ham alohida e'tirofqa loyiq. Ayniqsa, Prezidentimiz g'oyasi va tashabbusi bilan bunyod etilgan “Buyuk Ipak yo'li” xalqaro turizm markazi hududning yangi “tashrif qog'o'zi”ga aylandi. Gap shundaki, ushbu ko'p tarmoqli markaz tarkibida 8 ta zamonaviy mehmonxona, Kongress-xoll, “Boqiy shahar” majmuasi, amfiteatr va ko'plab boshqa inshootlar mavjud bo'lib, yiliga 2 million turistga xizmat ko'rsatish imkoniyatiga ega. Shu tariqa mehmonxona xizmatlari sifati jahon standartlariga mos darajaga yetkazilib, an'anaviy ekskursional o'rinni zamonaviy servis egalladi. Natijada sayyohlar soni 2016-yildagiga nisbatan 7 barobar oshdi, turistik xizmatlar eksporti esa 600 mln. dollarga yetdi.

Asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar ham ortib boryapti. Agar yalpi hududiy mahsulot hajmi 2016-yilda 23 trln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, hozirda ushbu raqam 121,5 trln. so'mlik ko'rsatkichda. Xuddi shuningdek, ilgari sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

7,4 trln. so'mdan oshmagan bo'lsa, o'tgan yil yakunlariga ko'ra, bu 57,8 trln. so'm bo'ldi. Albatta, ushbu yutuqlar o'z-o'zidan qo'lga kiritilayotgani yo'q. Buning zahirida hududlarni tizimli rivojlantirishga qaratilgan oqilona iqtisodiy siyosat mujassam. Chunonchi, so'nggi to'qqiz yil mobaynida yuzlab zamonaviy korxonalar va fabrikalar ishga tushirildi, minglab xizmat ko'rsatish obyektlari foydalanishga topshirildi. Ularda yaratilgan o'n minglab yangi ish o'rinlari esa aholi bandligi va oilaviy farovonligini ta'minlashda muhim manba bo'ldi.

Yangi “o'sish nuqtalari”
Davlatimiz rahbari hamma masalaning yechimi quyida ekanini ko'p bora ta'kidlar ekan, barcha bog'indagi rahbarlardan “pastga” tushib, joylardagi asl vaziyatni bilib ishlashni, odamlarni o'yantirayotgan



muammolarga yechim topishni talab etadi. Tashriflar davomida turli soha vakillari, odiy odamlar bilan dilan subhbatlash, ularning fikriga quloq tutadi. Shu asosda, har bir hududning tabiiy imkoniyatidan kelib chiqib, yangi rivojlanish nuqtalarini belgilab beradi. Hatto ularni amalga oshirish bo'yicha mexanizmlar ham aniq-ravshan ko'rsatiladi. Samarqand viloyati misolida aytganda, Yurtboshimiz ko'rsatmalari asosida investitsiya va moliyaviy resurslar samarali taqsimlanib, kapital yuqori texnologiyali hamda eksport salohiyati katta sohalarga yo'naltirila boshlangani kutilgan natijalarni berdi. Investitsiyalar hajmi 2016-yilda atigi 38 mln. dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yil yakuniga ko'ra, 1 mlrd. 476 mln. dollar sarmoya kiritildi. Yaqin istiqbolida buni 3 mlrd. dollarga yetkazish maqsad qilingan. Bu davrda eksport hajmi ham sezilarli darajada oshib, 260 mln. dollardan 1 mlrd. 10 mln. dollarga yetkazildi.

Bular shunchaki raqamlar emas, ularning ortida 3 milliondan ortiq aholining real

hayoti, buguni va ertasi turibdi. Sababi hudud iqtisodiyotining rivojlanishi ijtimoiy sohalarni qo'llab-quvvatlash, mahallalarni kambag'allik va ishsizlikdan xoli hududga aylantirish imkoniyatini kengaytiradi. Aytaylik, 2016 — 2025-yillar davomida Samarqand viloyatiga 12 mlrd. dollar investitsiya jalb qilinib, tadbirkorlik subyektlari soni



ikki barobar oshdi, 600 mingta doimiy ish o'rni yaratildi. Shu davr mobaynida 1132 ta ko'p qavatli uy barpo etilib, 56 mingta oilaning uy-joy sharoiti yaxshilandi. Maktabgacha ta'lim qamrovi 21 foizdan 73 foizgacha oshdi, oliy ta'limdagi bu ko'rsatkich 10 foizdan 45 foizga yetdi. Bu kabi misollar hududda amalga oshirilayotgan islohotlar kutilgan samaralarni berayotganini ko'rsatadi.

Binobarin, davlat rahbarining Samarqand viloyatiga navbatdagi tashrifida aytilgan har bir so'zda amaliy harakat, har bir tashabbusda aniq yechim, har bir taklif ortida esa davlat darajasidagi ko'mak mujassam. Ya'ni Prezidentimiz viloyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, yoshlar va samarqandliklar uchun yaratilayotgan qulayliklar, yo'l-transport va ijtimoiy infratuzilma obyektlari hamda yangi korxonalar bilan yaqindan tanishish chog'ida yangi “o'sish nuqtalari”ni belgilab berdi.

Avvalo, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida Samarqand viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalari bo'yicha yig'ilishi Narpay tumanida bo'lib o'tgani zamirida chuqur ma'no-mazmun mujassam. Bundan islohotlarning hozirgi bosqichida asosiy e'tibor markaziy hududlarga emas, aksincha, chekka tumanlar ravnaqiga



qaratila boshlanganini anglash mumkin. Zotan, davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, endilikda har bir qaror tumanlarning o'ziga xos jihatlarni, ularning raqobat ustunliklarini, logistikasi, kadrlar salohiyatini, an'anaviy tarmoqlarini va yangi “o'sish nuqtalari”ni hisobga olgan holda qabul qilinishi kerak. Shundan kelib chiqib, tuman mutasaddirlarga ko'plab muammoli masalalarni hal etish yo'llari ko'rsatib o'tildi.

Mas'ullarga tumanni ishsizlikdan xoli hududga aylantirish, daromadni ko'paytirish bo'yicha Narpay tajribasini yaratish vazifasi topshirildi. Shu bilan birga, Narpay hamda Qo'shrabot, Kattaqo'rg'on, Paxtach tumanlari, Kattaqo'rg'on shahrida sanoatni rivojlantirish bo'yicha dastur qabul qilinib, 1 trln. 200 mlrd. so'm ajratilishi belgilab berildi. Bu mablag'larning 800 mlrd. so'mi sanoat loyihalarini zarur infratuzilma bilan ta'minlashga, qolgan 400 mlrd. so'mi yo'l, suv, elektr ta'minotini yaxshilash, servis va renovatsiya loyihalariga yo'naltiriladi.

Ana shunday maqsadli chora-tadbirlar, davlatimiz rahbarining Samarqand har sohada namuna bo'lishi kerak, degan chiqarilgiga javoban hudud barqaror va izchil rivojlanishini, sanoat salohiyatini to'liq ochib berishini ta'minlaydi, albatta.

Yangi O'zbekiston durdonasi
Samarqandning sayyohlik, ayniqsa, ziyorat turizmi salohiyati nihoyatda yuqori. Ammo shu paytgacha bundan yetarlicha foydalana olinmayotgan edi.

Bugungi kunda Prezidentimiz tashabbusi bilan Imom Buxoriy majmuasi buyuk muhaddisi bobomizning islom olamida tutgan yuksak mavqei, ulkan salohiyatiga munosib tarzda qaytadan bunyod etilgani, Imom Moturiy majmuasi qayta ta'mirlanib,

obod qilinayotgani, shuningdek, qurilish ishlarini jarayonida buyuk faqih Burhoniddin Marg'iniy dafn etilgan joy ham aniqlanib, bu yerda maqbara tiklanayotgani hamda yana ko'plab loyihalar ziyorat turizmi rivojida yangi uqurlarni ochmoqda.

Viloyatda ziyoratchilarga har tomonlama qulay shart-sharoit yaratilyapti. Birgina Imom Buxoriy majmuasi qoshida turizm markazi ochilgani, unga yondosh 15 gektar maydonda zamonaviy infratuzilma yaratilib, shinam mehmonxonalar, xizmat ko'rsatish va servis nuqtalari barpo etilgani tufayli kuniga 65 ming nafar ziyoratchini qabul qilish imkoniyati paydo bo'ldi. Vaholanki, ilgari bir kunda 12 ming ziyoratchiga xizmat ko'rsatilar edi, xolos.

Majmuaning mahobati va ko'rkam qiyofasiga boqib, kishining aqli shoshadi. O'n ming kishiga mo'ljallangan ulkan masjid, ma'muriyat binosi, 154 ustunli milliy uslubdagi muhtasham ayvon unga yanada ulug'vorlik va viqor baxsh etib turibdi.

Majmua tarkibida eng ilg'or axborot texnologiyalari asosida 9 pavilyondan iborat noyob innovatsion muzey o'rin olgan bo'lib, u islom olamida muhaddislar sultoni deya e'tirof topgan Imom Buxoriyning hayoti va ilmiy merosi, islom ma'rifati rivojiga qo'shgan hissasini namoyon etadi. Shuningdek, muzeyda Qur'oni karimda ismlari zikr qilingan 25 payg'ambar tarixi, Muhammad alayhissalomning shajarasi, Makka va Madinadagi hayoti, hadislarning jamlanishi va yozilishi haqidagi ma'lumotlar joylashtirilgan.

Xullas, bu yerga qadami yetgan kishining ruhi uyg'onadi, qufli dili ochiladi, qalbi taskin topadi. Shu ma'noda, uni nafaqat Samarqandning, balki yangi O'zbekistonning durdonasi, deysh mumkin.

— Ulug' muhaddisi bobomiz Imom Buxoriy hazratlari nomi bilan ataladigan muqaddas ziyoratgoh va uning atrofida qurilish-bunyodkorlik ishlari sharoifati bilan bizing mahallamiz qiyofasi ko'rkam shaharcha ko'rinishini oldi, — deydi Paygari tumanidagi Xo'ja Ismoil nomidagi mahalla fuqarolar yig'ini raisi Jamol Narziyev. — Axir,

muaddur. Bugun Samarqand yangilanish, davlatimiz va iqtisodiy yuksalish og'ushida. Yashil harbiy rahbari tomonidan belgilab berilgan kamida 9 foiz iqtisodiy o'sishni ta'minlab, yalpi hududiy mahsulot hajmini 144 trln. so'mdan oshirish, 3 mlrd. dollar xorijiy investitsiya jalb etish va eksporti 1,2 mlrd. dollarga yetkazish, shuningdek, 100 ming aholini doimiy ish bilan ta'minlash, 31 ming oilani kambag'allikdan chiqarish va viloyatni ishsizlik hamda kambag'allikdan xoli hududga aylantirish yo'lida mavjud imkoniyatlar to'liq ishga solinmoqda. Shu bois viloyat ahli va faollari mazkur oliy darajadagi tashrif Samarqandning barcha hududini kompleks taraqqiy ettirishda sifat jihatdan yangi bosqichga boshlab berganiga katta ishonch bildirimoqda.

Abdulaziz YO'LDOŠEV
 (“Xalq so'zi”).

Qardoshlik rishtalari

SAN'AT – XALQLAR O'RTASIDA MA'NAVY KO'PRIK

O'zbek Milliy akademik drama teatrida Toktobolot Abdumomunov nomidagi Qirg'iz milliy akademik drama teatri ijodkorlari hamda ushbu mamlakat delegatsiyasining tashrihi doirasida mazmunli madaniy tadbir bo'lib o'tdi. Unda qardosh mamlakat elchixonasi vakillari, milliy madaniy markazlar, yurtimizdagi qirg'iz diasporasi a'zolari, ijodkor ziyolilar hamda O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi mutasaddilari qatnashdi.

Tadbirida so'z olgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi, O'zbekiston xalq yozuvchisi Xayriddin Sultonov va Qirg'iz Respublikasi Prezidenti maslahatchisi Medet Bukuyev keyingi yillarda ikki xalq o'rtasidagi qardoshlik rishtalari yangi shakli va mazmun bilan yanada boyiganini ta'kidladilar.

O'zaro aloqalar madaniyat, san'at va adabiyot sohasidagi ham izchil kengayib bormoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan yurtimizda ulug' qirg'iz yozuvchisi Chingiz Aytmatov merosini chuqur o'rganish, asarlarini qayta chop etish va keng targ'ib qilish borasida ko'lamli ma'rifiy ishlar amalga oshirilmoqda.

Ikki mamlakat teatrlari o'rtasidagi aloqalar, ijodiy safarlar muntazamlik kasb etgan. Qirg'iz teatri ijodkorlarining O'zbekistonga ushbu tashrihi nafaqat sahna asarlari namoyishi, balki ijodkor

ziyolilar o'rtasida fikr va tajriba almashish, o'zaro muloqotni mustahkamlash uchun ham muhim maydon bo'lib xizmat qiladi.

Tashrif doirasida Qirg'iziston xalq yozuvchisi Qayrat Imanaliyev asari asosida sahnalashtirilgan "Oxirgi xat" dramasi tomoshabinlarga taqdim etildi. Mazkur asarda Chingiz Aytmatovning iztirobli bolalik yillari, otasi To'raqul Aytmatov boshidan kechirgan og'ir taqdir, uning repressiya qurboniga aylangani, onasi Nagima ayning farzandlarini ilm va ma'rifatga chorlagani ta'sirchan badiiy yechimlarda yoritilgan.

Tadbir yakunida tomoshabinlar ushbu sahna asari ularda chuqur taassurot qoldirganini, qardosh xalqlar o'rtasidagi ma'naviy yaqinlikni yanada mustahkamlashga xizmat qilishini alohida ta'kidlashdi.

"Xalq so'zi".

INSON KAMOLOTINING POYDEVORI

Yangi O'zbekiston taraqqiyotida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ayniqsa, maktabgacha ta'lim sifatini oshirish eng ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Zero, inson kamolotining poydevori aynan maktabgacha ta'lim bosqichida shakllantiriladi. Shu bois pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari oldiga zamonaviy bilim va xalqaro tajribaga ega mutaxassislarni tayyorlash mas'uliyati qo'yilgan.

Ta'lim

Namangan davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta'lim kafedrasida ham ushbu mas'uliyatni chuqur his etgan holda ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va ularni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish borasida qator tashabbuslarni amalga oshirmoqda. Xususan, Yaponiya maktabgacha ta'lim tizimidagi samarali pedagogik yondashuvlar kafedra faoliyatida alohida e'tibor qaratilayotgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Mazkur tashabbuslarning muhim qismi sifatida viloyat miqyosida tashkil qilingan "EDUKIDS" o'quv-metodik hamkorlik markazi faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi. Markaz doirasida o'qituvchilarning mahorat darslari va treninglar Yaponiyaga xos pedagogik tamoyil – pedagogning nazoratchi emas, balki bolaga yo'l ko'rsatuvchi sifatida faoliyat yuritishi g'oyasiga asoslanadi. Bu yondashuv bolalarda mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kafedra tashabbusi bilan yo'lga qo'yilayotgan yana bir muhim yo'nalish – bolalarni qadriyatlar asosida tarbiyalash. Shu maqsadda qo'g'irchoq teatri namoyishlari, o'yin orqali o'rganish usullari hamda bolaga yo'naltirilgan ta'lim metodlari keng o'qilmoqda. Mutaxassislar fikricha, bunday yondashuv kichikintoylarda nafaqat bilim, balki ijtimoiy moslashuv, yetakchilik va jamoa bilan ishlash ko'nikmalarini ham shakllantiradi.

Ta'lim yo'nalishlari kesimida o'qitiladigan tanlov fanlariga Yaponiyaning "Mehnat – qadriyat" tamoyiliga asoslangan tarbiya mazmunini singdirish ham

muhim vazifalardan biri sifatida belgilangan. Ushbu tamoyil farzandlarimizda mehnatsevarlik, tartib-intizom, mas'uliyat va jamiyatga foydali bo'lish kabi fazilatlarini erta yoshdan shakllantirishga xizmat qiladi.

Kafedra oldida turgan istiqbolli rejalar qatorida yangi ta'mirlanayotgan o'quv binosida Sharqning ilg'or ta'lim-tarbiya modellari uy'unlashtirilgan holda Yaponiya, Xitoy va Singapur tajribalariga asoslangan ta'lim-tarbiya alyansini tashkil etish ham muhim o'rin tutadi. Ushbu loyiha doirasida ochilishi rejalashtirilayotgan "bog'cha laboratoriyalari" kelajak tarbiyachilari uchun amaliy tajriba maktabi vazifasini bajaradi.

Zamonaviy pedagogika talablariga mos ravishda talabalar uchun raqamli va innovatsion pedagogik muhit yaratish ham kafedra faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biri. Bu jarayonda talabalar bolalar bilan kichik tadqiqotlar, tabiat kuzatuvlari hamda mitti tajribalar o'tkazish uslubiyotini o'zlashtiradi. Natijada ular nafaqat bilim beruvchi, balki bolalarda tadqiqotchilik ruhini shakllantiradigan zamonaviy pedagoglar sifatida shakllanadi.

Maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan bunday yangi yondashuvlar kelajak avlodni har tomonlama barkamol tarbiyalashga xizmat qiladi. Namangan davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta'lim kafedrasida ta'lim tizimida maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan bunday yangi yondashuvlar kelajak avlodni har tomonlama barkamol tarbiyalashga xizmat qiladi. Namangan davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta'lim kafedrasida ta'lim tizimida maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan bunday yangi yondashuvlar kelajak avlodni har tomonlama barkamol tarbiyalashga xizmat qiladi.

Munojot ASRANBOYEVA, Namangan davlat pedagogika institutining Maktabgacha ta'lim kafedrasini mudiri.

YANGI O'ZBEKISTON – TURIZM CHORRAHASI

Turizm – tuganmas boylik, ammo undan oqilona va samarali foydalanilishiga daromad manbaiga aylanadi. Shu ma'noda, O'zbekiston o'zining boy tarixi, madaniyati va tabiati bilan sayyohlar uchun juda jozibali mamlakatdir.

So'nggi yillarda yurtimizda turizmni rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda, natijada Yangi O'zbekiston xalqaro maydonda o'z mavqeiini izchil mustahkamlab borayotir. Joriy yilning yanvar oyida davlatimiz rahbari xalqaro madaniy tadbirlar natijalari, sayyohlik sohasini rivojlantirish bo'yicha navbatdagi vazifalar hamda yirik madaniyat va turizm obyektlarini barpo etishga oid taqdimot bilan tanishuvi chog'ida ta'kidlaganidek, mamlakatimizning turizm salohiyatini AQSH, Fors ko'rfazi davlatlari, Hindiston, Xitoy va Skandinaviya kabi ustuvor bozorlarda ilgari surishga qaratilgan yangi marketing strategiyasini amalga oshirish zarur.

Nuqtai nazar

Gap shundaki, ushbu hududlardagi turistlar o'zbek madaniyati hamda tarixiga qiziqish bildirimoqda. Shu bois har bir bozor uchun individual marketing strategiyalari ishlab chiqilishi kerak. O'zbekistonning xalqaro turistik platformalardagi ishtirokini kengaytirish, raqamli kontentni rivojlantirish hamda yirik mediadesurslarni jalb qilish bugunning eng muhim vazifalari. Bu mamlakatimiz haqidagi ma'lumotlarni tarqatish va sayyohlar qiziqishini oshirishda muhim o'rin tutadi.

Veb-saytlar, ijtimoiy tarmoqlar va mobil ilovalar orqali turistlarga O'zbekiston haqida ma'lumot berish, ularni qiziqitirish va sayohat qilishga rag'batlantirish mumkin. Yirik mediadesurslar va fikr yetakchilarni jalb etish O'zbekistonning turistik imkoniyatlarini keng auditoriyaga yetkazishda ayni muddao.

Sayyohlar oqimi sezilari darajada o'smoqda

Shu o'rinda, uzoq xorij – Yevropa, Osiyo, Yaqin Sharq va Amerikadan kelayotgan turistlar oqimining sezilari darajada o'sganini alohida ta'kidlash lozim. Bu jahon sayyohlik xaritasida O'zbekistonning kundan-kunga tanilib, eng sayohatpoy yo'nalishlardan biriga aylanib borayotganini ko'rsatadi. Turistlarining ko'payishi, tabiiyki, milliy iqtisodiyotning o'sishida muhim rol o'ynaydi.

Ilgari turistlar faqatgina muayyan davrda kelishi kuzatilgan bo'lsa, bugunga kelib sohadagi islohotlar va mavlatlayotgan sharoit natijasida "turistik yaratilgan" tushunchasi yo'qolib bormoqda, ya'ni yil davomida turistlar soni barqaror saqlanib qolyapti. Viza rejimini soddalashtirish hamda raqamlashtirish borasidagi islohotlar tufayli O'zbekiston dunyoning eng mehmondo'st mamlakatlardan biri sifatida e'tirof etila boshlandi. 90 dan ortiq davlatlarga vizasiz rejim va elektron vizaning joriy qilinishi, mamlakatga kirish-chiqish talablarining yengillashuvi, zamonaviy mehmonxona va transport infratuzilmasining rivojlanishi sayyohlar sonining ishonchli o'sishi uchun asos yaratdi. Bu o'z-o'zidan qo'shimcha ish o'rinlarini talab qilgani bois mahalliy aholining daromadli ish bilan ta'minlanish darajasi oshib borayotganini alohida e'tirof etish joiz.

Davlatimizning pirovard maqsadi ham shu aslida, ya'ni mahalliy aholi uchun yangi ish joylarini yaratish, yoshlar va xotin-qizlarni yuqori daromadli ish bilan ta'minlash hamda bu orqali xalqimizning turmush farovonligini oshirishdan iborat. Hisob-kitoblarga ko'ra, har 30 nafar sayyoh mamlakat turizm sohasida bir, unga turosh bo'lgan tizimda esa ikki yangi ish o'rnini yaratishiga sabab bo'ladi.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, yirik madaniyat va turizm obyektlarini barpo etish turistik infratuzilmani yaxshilaydi. Bu obyektlar nafaqat xorijiy turistlarni jalb qilish, balki mahalliy aholi uchun ham ma'naviy qadriyatlarini saqlashda muhimdir.

Ziyorat turizmi – istiqbolli yo'nalish

Dunyoda turizmning 200 dan ortiq turlari bo'lib, ular orasida ziyorat turizmi eng tez rivojlanayotgan istiqbolli yo'nalishlardan biridir. Mamlakatimizda ilgari tarixiy, madaniy turizm bilan cheklanib qolgan bo'lsa, oxirgi o'ttiz yilda safari (cho'l), etnografik, gastronomik yangi yo'nalishlar qatorida ziyorat turizmiga ham alohida e'tibor qaratilayotgani shunday. Chunki O'zbekiston bu borada yuqori salohiyatga ega bo'lib, imkoniyatlardan esa to'liq foydalanish choralarini ko'rmoqda.

Ayonki, O'zbekiston dunyodagi islom sivilizatsiyasi beshigi sifatida ma'rifati va madaniyati markazi bo'lib xizmat qilgan. Bu zaminda dinimiz rivoji, jahon ilmi fani taraqqiyotiga hissa qo'shgan buyuk allomalar, metafakir olimlar, ulamolarda hamda avliyolar yetishib chiqqan. Dunyoda ularning muborak qadamjolari ziyoratiga esa ehtiyoj yuqori. Misol

Vatanimiz durdonasi

Qaytadan bunyod etilgan Samarqanddagi Imom Buxoriy majmuasida ham ziyoratgahlar har tomonlama qulay sharoit yaratildi. Xususan, majmuva qoshida turizm markazi ochildi. Yondosh 15 gektar maydonda zamonaviy infratuzilma yaratilib, shina mehmonxonalar, xizmat ko'rsatish va servis nuqtalari barpo qilindi. Jumladan, bitta to'rt yulduzli, 2 ta uch yulduzli mehmonxona, 22 ta 176 o'rinli oliy mehmon

uchun, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Xoja Bahouddin Naqshband kabi buyuk ulamolarning maqbaralari ziyoratgahlar uchun muhim joylardir.

Demak, ziyorat turizmi, bu – turistlarning diniy, ma'naviy va madaniy maqsadlarda muayyan joylarga, xususan, muqaddas ziyoratgohlarga borishini nazarda tutadi. U mahalliy iqtisodiyotga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Turistlar mehmonxonalarda qolishlari, restoranlarda ovqatlanishlari va mahalliy mahsulotlarni xarid qilishlari natijasida iqtisodiy faollik oshadi. Ziyoratgahlar o'z diniy bilimlarini kengaytirish hamda diniy qadriyatlarini o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa diniy bag'rikenglik va tolerantlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda yurtimizda ziyorat turizmi ravnaqi uchun bir necha muhim choralar amalga oshirilmoqda, yirik madaniyat va turizm obyektlari loyihalari ishga tushirilayotir. O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi bugungi kunda nafaqat milliy, balki xalqaro ahamiyatga ega ilmiy-ma'rifiy maskan sifatida namoyon bo'lmoqda, sayyohlarni o'ziga jalb etadigan maskanga aylanishi kutilyapti.

An'anaviy muzeylardan tubdan farq qiladigan, "Sivilizatsiya, shaxslar, kashfiyotlar" tamoyili asosida tiklangan ushbu markaz tarixni o'z ichiga olgan yig'indisi emas, balki uzviy bog'liq jarayon sifatida namoyon etadi. Davlatimiz rahbari

tashabbusi bilan bunyod qilingan va Uchinchi Rennessans poydevori, deya ta'riflanayotgan O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi buyuk allomalarimizning jahon tamadduniga qo'shgan hissasini dunyo hamjamiyatiga namoyon etadigan, islom ma'rifatini keng tarqatadigan hamda yoshlarni ulug' allomalarga munosib avlod qilib tarbiyalaydigan ma'rifat koshonasi bo'lgani bois ham uni ko'rish ishtiyoidagi sayyohlar son-sanoqisiz.

Vatanimiz durdonasi

Qaytadan bunyod etilgan Samarqanddagi Imom Buxoriy majmuasida ham ziyoratgahlar har tomonlama qulay sharoit yaratildi. Xususan, majmuva qoshida turizm markazi ochildi. Yondosh 15 gektar maydonda zamonaviy infratuzilma yaratilib, shina mehmonxonalar, xizmat ko'rsatish va servis nuqtalari barpo qilindi. Jumladan, bitta to'rt yulduzli, 2 ta uch yulduzli mehmonxona, 22 ta 176 o'rinli oliy mehmon

Ilmiy yondashuvlarga asoslangan holda ushbu yo'nalishdagi ishlarni tizimli yo'lga qo'yish mustahkam poydevorga asoslanish bilan barobar. Zero, ilgama tayinlangan har qanday ish o'z samarasini kutilganidan ko'p berishi allaqachon o'z isbotini topgan. Turizm yo'nalishini rivojlantirishga qaratilayotgan e'tibor, islohotlar, aytloq ko'zlangan dasturlar Yangi O'zbekistonni sayohatlar chorrahasi, turizm markaziga aylantiradi, deb ishonamiz.

Shahnoza ERGASHKO'JAYEVA, Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Marketing kafedrasini mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

REKLAMA

O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Nazariy fizika instituti quqidagi lavozimlarga tanlov e'lon qiladi:

direktorning ilm-fan bo'yicha ma'lumotlar bazasi ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi – laboratoriya mudiri; gravitatsion maydon nazariyasi ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi – laboratoriya mudiri; kvant tarmoqlar va dinamik tizimlari ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi – laboratoriya mudiri; nochiziqli fizika ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi – laboratoriya mudiri; subatom fizikasi ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi – laboratoriya mudiri; sun'iy intellekt, hisoblash va ma'lumotlar bazasi ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi – laboratoriya mudiri; gravitatsion maydon nazariyasi ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi – laboratoriya mudiri; kvant tarmoqlar va dinamik tizimlari ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi – laboratoriya mudiri; nochiziqli fizika ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi – laboratoriya mudiri; subatom fizikasi ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi – laboratoriya mudiri; axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha mutaxassis – 1 ta.

Tanlovda qatnashadigan nomzodlar quyidagi hujjatlarni taqdim etishlari lozim:

1. Institut direktori nomiga ariza;
2. Oliy ma'lumoti to'g'risidagi diplomlar nusxalari;
3. Ilmiy darajasi, ilmiy unvoni to'g'risidagi diplomlar nusxalari;
4. Ilmiy ishlari ro'yxati (so'nggi 3 yil);
5. Malaka oshirganligi to'g'risidagi guvohnoma nusxasi (so'nggi 3 yil).

Hujjatlar e'lon chop etilgan sanadan boshlab 1 (bir) oy muddatda qabul qilinadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy, O'zMUning xodimlar bo'limi. Tel.: 71-246-03-92.

ZARARLILIKLARNING KO'PAYISHIGA YO'L QO'YILMAYDI

Bahorning seryog'in va iliq kelishi tufayli Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand va Jizzax viloyatlarida qishloq xo'jaligi uchun o'ta zararli bo'lgan chigitraklar erta tuxumdan chiqqa boshladi. Chigitrka tabiatdagi mayda hasharotlardan biri bo'lsa-da, unga qarshi o'z vaqtida va samarali kurash olib borilmasa, u qishloq xo'jaligi ekinlariga jiddiy putur yetkazishi mumkin.

Nazorat

Bir qarashda arzimasi ko'ringan mazkur hasharotlar galasi qisqa vaqt ichida keng dalalarni qamrab olib, yashil maydonlarni yalang'och sahroga aylantirishi mumkin. Ilgari chigitrakga qarshi kurash tizimi yetarlicha shakllanmagani bois janubiy viloyatlardagi dehqonlar bu ofat tufayli ko'p aziyat chekkan. Mashaaqatli mehnat bilan yetishtirilgan hosil bir necha kun ichida yo'q bo'lib ketishi ular uchun katta yo'qotish edi.

Bugungi kunda vaziyat tubdan o'zgargan, – deydi O'simliklar karantini va himoyasi agentligi chigitrka hamda tut parvonasiga qarshi kurash xizmati rahbari Bahodir Xudoyqulov. – Ilmiy yondashuv, zamonaviy texnologiyalar va tizimli kurash choralarini tufayli chigitrakga qarshi samarali choralar ko'rilmog'ida. Kurash ishlariga 700 ga yaqin mutaxassislar jalb etildi. Bu yil 651,8 ming gektar yerda kimyoviy ishlov o'tkazish rejalashtirilgan. Hozirgacha 4 ming gektar yerda kimyoviy kurash ishlari yakunlandi. Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida 22-martdan, Samarqandda 24-martdan, Jizzaxda esa 28-martdan zararli chigitraklar tuxumdan chiqqa boshlagani aniqlandi.

Gap 1-2 yoshdagi "Marokash chigitrakasi" haqida borar ekan, mutaxassislar ularning

qishloq xo'jaligi yerlari va aholi tomorqalariga tarqalishining oldini olish ustida ishlamoqda. Barcha hududlarda kuzatuv-nazorat ishlari kuchaytirilib, chigitrka to'dalari aniqlangan joylarda kimyoviy kurash o'tkazilmoqda. An'anaviy kimyoviy kurash tadbirlari har yili voha hududlarida boshlanib, Qoraqalpog'iston Respublikasi tumanlarida yakunlanadi.

Kurash tadbirlariga 53 ta yuqori unumli purkagichli maxsus avtomashina, 194 ta purkagichli traktor, 1000 tadan ortiq motorli osma qo'l purkagichlari, 25 ta suv tashuvchi transport vositasi, 66 ta mototsikl shay holatga keltirildi, – deydi B. Xudoyqulov. – Yonilg'i-moylash mahsulotlari va kimyoviy vositalar zaxiralari shakllantirildi. Bugungi kunga qadar 35 ming gektardan ortiq maydonda kuzatuv olib borildi, 3 641 gektarda kimyoviy kurash o'tkazildi. Joylarda tashkil etilgan tezkor kurash otryadlari faol ish olib bormoqda.

Aytish joizki, chigitrakga qarshi kurash faqat bahorda amalga oshiriladigan yumush emas. Balki tabiat bilan muvozanatni saqlagan holda, inson mehnatini himoya qilish va kelajak avlodlar farovonligini ta'minlash yo'lidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Faxriddin BOZOROV ("Xalq so'zi").

Poytaxtimizda 4 – 6-aprel kunlari badiiy gimnastika bo'yicha "Yorqin yulduzcha" xalqaro turniri, 7 – 13-aprelda esa badiiy gimnastika bo'yicha jahon kubogi bosqichi o'tkaziladi.

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-142. 31 016 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yubkub olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va mulg'iga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator M. Begumarov tomonidan sahilalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefon: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbachi muharrir G'. Bahromov.
Musahhiih S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzil:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 21.50 Topshirildi – 23.45 1 2 3 4 5 6